

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

YADRO FIZIKASI INSTITUTI

SHERALIYEV MASHRAB UMURZAKOVICH

**O‘TALEGIRLANGAN KUPRATLARDA BKSH-SIMON FERMI-
SUYUQLIKLI O‘TA O‘TKAZUVCHANLIK RO‘Y BERISH MUMKINLIGI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
physical and mathematical sciences**

Sheraliyev Mashrab Umurzakovich

О‘talegirlangan kupratlarda BKSh-simon Fermi-suyuqlikli o‘ta o‘tkazuvchanlik
ro‘y berish mumkinligi3

Шералиев Машраб Умурзакович

О возможности реализации БКШ-подобной ферми-жидкостной
сверхпроводимости в сверхлегированных купратах.....23

Sheraliyev Mashrab Umurzakovich

On the possibility of realizing BCS - like Fermi - liquid
superconductivity in overdoped cuprates.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....51

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

YADRO FIZIKASI INSTITUTI

SHERALIYEV MASHRAB UMURZAKOVICH

**O‘TALEGIRLANGAN KUPRATLARDA BKSH-SIMON FERMI-
SUYUQLIKLI O‘TA O‘TKAZUVCHANLIK RO‘Y BERISH MUMKINLIGI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM1108 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.inp.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Djumanov Safarali**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: **Raximov Abdulla Mannabovich**
fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy hodim

Rasulov Rustam Yavkachovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel. (+99871) 289-31-41; faks (+99871) 289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel. (+99871) 289-31-19).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil " _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil " _____ " _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

M.Yu. Tashmetov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

O.R. Tojiboev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD.,
katta ilmiy xodim

S.B. Igamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Hozirgi kunda legirlangan mis oksidli (kupratli) birikmalarda o'ta o'tkazuvchanlik hodisasining tabiati va kelib chiqishini o'rganish zamonaviy kondensirlangan holat fizikasining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. 1986-yilda kashf etilgan yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlarga (YuHO'O') bo'lgan eng katta qiziqish, xona haroratiga yaqin bo'lgan kritik harorat (T_c) ga ega materiallarni yaratish imkoniyati bilan bog'liq. Bu esa energetika va yuqori texnologiyalar uchun keng istiqbollarni ochadi. Qariyb qirq yillik jadal tadqiqotlarga qaramay, kam legirlangan, optimal legirlangan va o'rtacha o'ta legirlangan kupratlardagi g'ayrioddiy o'ta o'tkazuvchanlikning tabiatini to'liq tushunish hali ham muammoligicha qolmoqda. Asosiy qiyinchiliklar ularning o'ta o'tkazuvchanlik holatidagi juda g'ayrioddiy xususiyatlari bilan bog'liq. Bu xususiyatlarni tushunish mikroskopik nazariyani yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

Jahon amaliyotida YuHO'O'-kupratlarda T_c dan yuqori psevdotirgish holatini va g'ayrioddiy o'ta o'tkazuvchanlik holatini tavsiflash uchun ko'plab nazariy yondashuvlar mavjud: kuchli elektron korrelyatsiya modellari (Xabbardning o'zgartirilgan modeli), shuningdek, bipolyaronlar va boshqa kvazizarralarning Boze-Eynshteyn kondensatsiyasi (BEK) modellari. Biroq, ularning aksariyati legirlangan YuHO'O'-kupratlarda o'ta o'tkazuvchanlik holatini tavsiflashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bu materiallarda kuper juftliklarining fermion yoki bozon tabiatini ishonchli asoslamasdan BKSh-simon modellarni qo'llash muammoli hisoblanadi. Shu sababli, legirlangan kupratlarda T_c dan past haroratlarda o'ta o'tkazuvchanlik holatining shakllanishini tavsiflaydigan mos nazariyani ishlab chiqish g'oyat dolzarb vazifa hisoblanadi.

Respublikamizda kondensirlangan holatlar fizikasini (xususan, nanostrukturali va o'ta o'tkazuvchan materiallar fizikasi hamda yarim o'tkazgichlar fizikasi) rivojlantirishga va bu yo'nalishda jahon darajasida fundamental tadqiqotlar olib borishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish va kelajakda amaliyotga tatbiq etish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu fundamental tadqiqotlarning yo'nalishlari 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida o'z aksini topgan. Shu munosabat bilan O'zR FA Yadro fizikasi instituti va bir qator oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy markazlarda kristallar, nanostrukturalar va yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlarning elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Kuprat materiallardagi o'ta o'tkazuvchanlik mexanizmlarini tushunish, shuningdek, istiqbolli funksional materiallarni ishlab chiqish uchun ahamiyatli natijalar qo'lga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-fevraldagi PQ-2772-sonli "2017-2021-yillarda elektrotexnika sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida", 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyatini,

ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-sonli "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. "Energetika, energiya tejamkorligi va muqobil energiya manbalari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Butun dunyo bo'ylab ko'plab olimlar legirlangan kuprat materiallarda yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikning turli jihatlarini tadqiq etmoqda, Masalan, amerikalik (R. Feynman, T. Holstein, P.W. Anderson, S.A. Kivelson, P.A. Lee, J. Devreyes, D. Emin, L.N. Cooper, W.J. Emery va b.), ingliz (R. Peierls, N.F. Mott, A. Wilson, J. Hubbard, D.M. Egles, P. P. Edwards, R.L. Johnston, A. Carrington, J.W. Loram, T. Rice va b.), yaponiyalik (Y. Toyozawa, S. Uchida, Y. Koike, S. Ono, Y. Ando, M. Ido, A. Matsuda, T. Kato va b.), italiyalik (A. Bianconi, Gianni A. Varlamov, C. Castellani, G. Balestrino, Nicola L. Saini, G. Margaritondo va b.), rossiyalik (L.D. Landau, S.I. Pekar, D.I. Khomsky, A.S. Alexandrov, V.F. Gantmakher, yangi zelandiyalik (J. Tallon, B. Buckley, N. Strickland, J. Storey va b.), sloveniyalik (F. Horváth, G. Pristáš, K. Flachbart) va boshqa mutaxassislar tomonidan o'rganilgan.

Natijada bir qator qiziqarli ilmiy natijalarga erishildi, xususan: o'ta o'tkazuvchanlikga o'tishda elektron issiqlik sig'imida λ -simon anomaliya aniqlandi; YuHO'O'-kupratlarning tajribaviy va nazariy elektron fazaviy diagrammalari taklif etildi; mutlaq nol haroratda va legirlashning ma'lum bir kritik darajasida yashirin kvant kritik nuqta mavjudligi bashorat qilindi va tasdiqlandi; kritik tok, magnit maydonlar va magnit maydonning kirish chuqurligining haroratga g'ayrioddiy bog'liqligi aniqlandi; normal va o'ta o'tkazuvchanlik holatlarida Fermi sathi yaqinida bir zarrachali qo'zg'alishlar zichligining pasayishi bilan bog'liq bo'lgan elektron xususiyatlarining anomaliyalari ko'rsatib berildi. Kuper juftliklarini tavsiflash uchun ko'pincha fermi-suyuqlik o'ta o'tkazuvchanligining BKSh-simon nazariyasi, shuningdek, BKSh-senariyni kuchli bog'langan juftliklarning BEK-kondensatsiyasi bilan bog'lovchi interpolyatsion modellar qo'llaniladi. Biroq o'zaro ta'sirlashmaydigan bozonlarning (xolonlar va bipolyaronlar) oddiy BEK modeli YuHO'O'ni to'liq tavsiflashga qodir emas.

Ko'p sonli tajriba ma'lumotlari va turli nazariy yondashuvlarga qaramay, kam legirlangan, optimal legirlangan va o'ta legirlangan yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlardagi g'ayrioddiy o'ta o'tkazuvchanlik holatlarining tabiati hamon noaniq. Birorta model ham tajribada kuzatilgan barcha o'ta o'tkazuvchanlik xususiyatlarini miqdoriy jihatdan tushuntira olmaydi va legirlangan yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan

kupratlarning elektron faza diagrammalarini to‘g‘ri bashorat qila olmaydi. BKSh-simon nazariyalarni qo‘llash faqat Kuper juftliklarining fermion tabiatida mumkin, biroq bu masala va nazariyaning qo‘llanilishi legirlash darajasiga qanchalik bog‘liqligi hamon hal etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining mavzusi dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining № OT-F2-15 “Yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlar va ularga o‘xshash kondensirlangan tizimlarning yangi o‘ta o‘tkazuvchanlik va o‘ta oquvchanlik xususiyatlarini nazariy tadqiq etish” (2017-2020) mavzusidagi ilmiy loyiha hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-sonli qarori asosida 2020-2024-yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari dasturi yuzasidan “YuHO‘O‘-kupratlarning elektron nazariyasi va uni dielektrik/metall va o‘ta o‘tkazuvchanlik fazalarining hosil bo‘lishi va nanomasshtabli bo‘linishida tadqiq qilish uchun qo‘llash” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘ta legirlangan kupratlarda fermi-suyuqlik o‘ta o‘tkazuvchanligining mos BKSh-simon nazariyasini rivojlantirish hamda kuper juftliklarining fermion tabiatini va ulardagi fermion-bozon o‘tishini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kam legirlangan, optimal legirlangan va o‘ta legirlangan kupratlardagi xarakterli Fermi energiyalarini aniqlash;

kuper juftliklarining fermion tabiatini belgilovchi universal va mikroskopik mezonlarni hamda legirlangan kupratlarda fermion-bozon o‘tish imkoniyatlarini o‘rganish;

o‘ta legirlangan kupratlarda elektron/kovak zaryad tashuvchilarning Kuper juftlanishining mos BKSh-simon nazariyasini rivojlantirish;

o‘ta legirlangan kupratlarda BKSh-simon Fermi suyuqligining o‘ta oquvchanlik mezonlarini aniqlash;

o‘ta legirlangan kupratlarda BKSh-simon Fermi-suyuqlik o‘ta o‘tkazuvchanligini amalga oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatish va ulardagi o‘ta o‘tkazuvchanlik parametrlarini legirlash darajasiga bog‘liq funksiya sifatida aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘ta legirlangan kupratli o‘ta o‘tkazgichlar va ulardagi kvazierkin kovaklarning o‘zaro ta’sirlashuvchi Fermi gazi olingan.

Tadqiqotning predmeti o‘ta legirlangan kupratlarning o‘ta o‘tkazuvchanlik parametrlari va bu parametrlarga legirlash darajasining ta’siri hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqotda kvant va statistik mexanika hamda qattiq jism nazariyasi usullari, kuchli bog‘lanish usuli, shuningdek kompyuter grafikasi dasturlari (Mathematica, OriginPro 8, CorelDRAW) qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

kam legirlangan, optimal legirlangan va o‘ta legirlangan kupratlarda xarakterli Fermi energiyalari aniqlandi va o‘ta legirlangan kupratlarda Fermi energiyasi kam

legirlangan va optimal legirlangan kupratlardagi Fermi energiyalaridan sezilarli darajada yuqori ekanligi ko'rsatilgan;

o'ta legirlangan kupratlarda Kuper juftliklarining fermion tabiatini aniqlovchi universal miqdoriy mezonlar ishlab chiqilgan va optik fononlar bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan kvazierkin kovakli tashuvchilarning Kuper juftlashuviga mos BKSh-simon nazariyasi rivojlantirilgan;

birinchi marta fermion Kuper juftliklari uchun Landauning o'ta oquvchanlik mezoni aniqlangan va o'ta legirlangan kupratlarda BKSh-simon o'ta o'tkazuvchanlik tartib parametri va o'ta o'tkazuvchanlikga o'tishining kritik haroratining legirlash darajasiga bog'liqligi aniqlangan;

birinchi marta turli xil o'ta legirlangan kupratlarda nazariy hisoblangan va tajribada aniqlangan o'ta o'tkazuvchanlikning tartib parametrlari va o'ta o'tkazuvchanlikga o'tishining kritik harotatlari o'rtasida yaxshi moslik aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

o'ta legirlangan kupratlar va ularga o'xshash materiallarning o'ta o'tkazuvchanlik xususiyatlarini yaxshi tavsiflovchi fermi-suyuqlik o'ta o'tkazuvchanligining BKSh-simon nazariyasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy va yaxshi sinovdan o'tgan nazariy va statistik fizika usullari, fermionlarning o'rtacha maydon usullari qo'llanilishi, shuningdek, analitik va sonli hisob-kitoblarning mavjud eksperimental ma'lumotlar bilan mos kelishligi asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari turli xil qattiq jismlarda Fermi-suyuqlik o'ta o'tkazuvchanligining BKSh-simon nazariyalarining qo'llanilish chegaralarini aniqlash imkonini beradi, shuningdek, o'ta o'tkazuvchanlik va o'ta oquvchanlik hodisalarining boshqa tizimlarda keyingi nazariy tadqiqotlari uchun ularning ilmiy ahamiyatini aniqlashtiradi va konkretlashtiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati legirlangan yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlarda Kuper juftliklarining fermion tabiatini aniqlash uchun olingan mezonlar va taklif qilingan Fermi-suyuqlik o'ta o'tkazuvchanligining BKSh-simon nazariyasida asoslanadi. Ushbu mezon va nazariyalar o'ta o'tkazuvchanlik va o'ta oquvchanlik hodisalarini boshqa tizimlarda, xususan, o'ta legirlangan yarimo'tkazgichlarda va o'ta oquvchan ^3He da tadqiq qilishda qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'talegirlangan kupratlarda BKSh-simon Fermi-suyuqlikli o'ta o'tkazuvchanligini o'rganish natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

kam legirlangan, optimal legirlangan va o'ta legirlangan kupratlarning Fermi energiyalarini aniqlash formulalari; o'ta legirlangan kupratlarda Kuper juftliklarining fermion tabiatini belgilovchi universal miqdoriy mezonlar va ushbu kuprat o'ta o'tkazgichlarda kvazi-erkin kovak tashuvchilarning optik fononlar bilan o'zaro ta'sirlashuvida Kuper juftlashuvining BKSh-simon nazariyasi; fermion Kuper juftliklari uchun taklif etilgan Landau o'ta oquvchanlik mezoni va o'ta legirlangan

kupratlarda BKSh-simon o'ta o'tkazuvchanlik tartib parametri hamda o'ta o'tkazuvchanlikka o'tishning kritik haroratining konsentratsiyaga bog'liqlik tenglamalari Namangan muhandislik-qurilish institutining «Fizika» kafedrasida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan FZ-20200929243 loyihasi doirasida foydalanilgan (Namangan davlat texnika universitetining 2025 yil 4-iyundagi №01/10-09/682 raqamli xati). Natijalardan foydalanish kuchli elektromagnit maydonda qizdirilgan elektronlar va fononlarning yarim o'tkazgichli quyosh fotoelektrik elementlari hamda nanostrukturalar xususiyatlariga ta'sirini o'rganishda ilmiy-uslubiy asos sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 4 ta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan 4 tasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, obykti, predmeti va usullari aniqlangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni joriy etish, ishni sinovdan o'tkazish va dissertatsiya tuzilishi haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Metallar va legirlangan mis-oksiddli (kupratli) birikmalarda o'ta o'tkazuvchanlikning turli taklif etilgan mexanizmlari”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot yo'nalishi bilan bog'liq adabiyotlar tahlili berilgan. Legirlangan kupratlarning o'ta o'tkazuvchanlik xususiyatlari an'anaviy past haroratli metall o'ta o'tkazgichlarnikidan sezilarli darajada farq qiladi. Ko'plab fenomenologik va mikroskopik yondashuvlar, jumladan, modifikatsiyalangan BKSh nazariyalari mavjud bo'lishiga qaramay, yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlik mexanizmlarini to'liq tushuntirish hamon yechimini topmagan masala bo'lib qolmoqda. Fermi suyuqligiga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan o'ta legirlangan kupratlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu esa mazkur sohada asosan fermion tabiatiga ega bo'lgan kuchsiz bog'langan kuper juftliklari tufayli BKSh-simon fermion o'ta o'tkazuvchanlik mavjud bo'lishi mumkinligini taxmin qilishga asos bo'ladi. Shu munosabat bilan

bunday juftliklarning amalga oshish sharoitlarini o'rganish hamda BKSh-simon mexanizm doirasida o'ta o'tkazuvchanlik holatiga o'tishni tavsiflovchi kritik parametrlarni aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

Dissertatsiyaning “**Legirlangan kupratlarda kuper juftlarining fermion tabiati va fermion-bozon o'tishini aniqlash mezonlari**” nomli ikkinchi bobida biz kam legirlangan, optimal legirlangan va o'ta legirlangan kupratlarning xarakterli Fermi energiyalarini aniqladik hamda legirlangan kupratlarda Kuper juftliklarining fermion tabiatini va fermion-bozon o'tishini aniqlash mezonlarini o'rgandik. Kam legirlangan va optimal legirlangan YuHO'O'-kupratlarning Fermi energiyasini aniqlashda ushbu YuHO'O'-materiallardagi kovakli zaryad tashuvchilarning polyaron tabiatini hisobga oldik. Bunda legirlangan kupratlardagi katta polyaronlarning Fermi energiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\varepsilon_F = \frac{\hbar^2 [3\pi^2 n_h]^{2/3}}{2m_p}, \quad (1)$$

bu yerda n_h - kovakli tashuvchilar konsentratsiyasi, m_p - katta polyaronlarning massasi.

O'ta legirlangan kupratlarda polyaron effekti yo'qolganda, kovakli polyaron tashuvchilarning massasi kvazi-erkin kovaklarning massasiga teng bo'ladi, ya'ni $m_p = m_h^* = m_e$, m_h^* - kovaklarning effektiv massasi. Shu sababli, o'ta legirlangan kupratlardagi kovakli tashuvchilarning Fermi energiyasi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\varepsilon_F = \frac{\hbar^2 [3\pi^2 n_h]^{2/3}}{2m_h^*}, \quad (2)$$

(1) va (2) ifodalaridan foydalanib, biz kam legirlangan, optimal legirlangan va o'ta legirlangan kupratlardagi kovak polyaronlar va erkin kovak tashuvchilarning xarakteristik Fermi energiyalarini hisoblab chiqdik. Ushbu hisob-kitoblarning natijalari *LSCO* va *YBCO* YuHO'O'-kupratlari uchun 1 va 2 - jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

LSCO kupratlarining kam legirlangan (KL), optimal legirlangan (OL) va o'ta legirlangan (O'L) namunalarida Fermi energiyasining hisoblangan qiymatlari

Material	$n_h, 10^{21} \text{cm}^{-3}$	m_p	ε_F, eV
<i>LSCO, KL</i>	0.7	$2.41m_e$	0.120
<i>LSCO, OL</i>	0.8	$1.91m_e$	0.166
<i>LSCO, O'L</i>	1.1	$1.00m_e$	0.626

**YBCO kupratlari uchun kam legirlangan (KL), optimal legirlangan (OL)
va o'ta legirlangan (O'L) holatlarda Fermi energiyasining
hisoblangan qiymatlari**

Material	$n_h, 10^{21} \text{cm}^{-3}$	m_p	ε_F, eV
<i>YBCO, KL</i>	1.1	$2.26m_e$	0.175
<i>YBCO, OL</i>	1.5	$1.82m_e$	0.264
<i>YBCO, O'L</i>	1.6	$1.00m_e$	0.500

Biz noaniqlik munosabatlaridan foydalanib, legirlangan kupratlardagi kuper juftliklarining fermion va bozon tabiatini aniqlash uchun universal hamda mikroskopik mezonlarni ishlab chiqdik. Bu mezonlar yordamida kuper juftliklarining xususiyatlarini aniq va to'liq o'rganish imkoniyati yaratildi. Legirlangan kupratlardagi kuper juftlarining fermion yoki bozon tabiatini kuper juftining o'lchami a_c ni kuper juftlari orasidagi o'rtacha masofa R_c bilan taqqoslash orqali aniqlash mumkin. Endi bu materiallardagi kuper juftliklarining tabiatini aniqlash uchun Geyzenbergning noaniqlik tamoyilidan foydalanishimiz mumkin.

$$\Delta x \Delta k \simeq \frac{1}{2}, \quad (3)$$

bunda Δx va Δk - mos ravishda juftlashuvchi fermion tashuvchilarning koordinatasi va to'lqin vektoridagi noaniqliklarini ifodalaydi.

Ba'zi o'zgartirishlar (yoki manipulyatsiyalar) amalga oshirilgandan so'ng, (3) munosabatni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin bo'ladi:

$$a_c \cdot \varepsilon_A \simeq \frac{1}{2 \cdot \frac{1}{R_c}} \cdot \varepsilon_F = \frac{1}{2} R_c \cdot \varepsilon_F \quad (4)$$

Shuni aytish joizki, $a_c > R_c$ bo'lganda, Kuper juftlari bir-biri bilan kesishadi va fermion xususiyatiga ega bo'ladi. Aksincha, $R_c > a_c$ bo'lsa, Kuper juftlari bir-biri bilan kesishmaydi va bozon xususiyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, legirlangan kupratlardagi Kuper juftlarining fermion xususiyatini aniqlovchi mezoni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\frac{a_c}{R_c} \simeq \frac{\varepsilon_F}{2\varepsilon_A} > 1 \quad (5)$$

bu o'ta o'tkazgichlarda fermion tabiatini aniqlaydigan universal mezondir.

(5) munosabatidan kelib chiqadiki, legirlangan kupratlardagi Kuper juftlari quyidagi shart bajarilganda fermion tabiatiga ega bo'ladi:


$$\varepsilon_F \gg \varepsilon_A \quad (6)$$

Yuqorida aytilganlarni inobatga olgan holda, legirlangan YuHO'O'-kupratlarning energetik parametrlarining mumkin bo'lgan qiymatlari 3-jadvalda keltirilgan.

LSCO va YBCO YuHO‘O‘-kupratlarning ulardagi Kuper juftlarining bozon va fermion tabiatini aniqlovchi energetik parametrlarining mumkin bo‘lgan qiymatlari

Material	$\hbar\omega_0$ eV	E_p eV	ε_A eV	ε_F eV	$\varepsilon_F/\varepsilon_A$	Kuper juftlashish turi
LSCO, KL	0.040	0.339	0.379	0.120	0.317	bozon
LSCO, OL	0.045	0.219	0.264	0.166	0.630	bozon
LSCO, O‘L	0.050	0.000	0.050	0.626	12.50	fermion
YBCO, KL	0.050	0.379	0.429	0.175	0.408	bozon
YBCO, OL	0.055	0.245	0.300	0.264	0.865	bozon
YBCO, O‘L	0.070	0.000	0.070	0.500	7.143	fermion

Shunday qilib, (6) mezon faqat o‘ta legirlangan kupratlarda yaxshi bajariladi va ulardagi Kuper juftlari fermion xususiyatga ega. Bunda Kuper juftliklarining fermion xususiyatidan bozon xususiyatiga o‘tishi $\varepsilon_F = 2\varepsilon_A$ bo‘lganda sodir bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Fermion-bozon o‘tishi va legirlangan kupratlarda BKShturidagi o‘ta o‘tkazuvchanlik nazariyasining qo‘llanilish chegarasi

Biz legirlangan kupratlardagi Kuper juftlarining fermion tabiatini aniqlash uchun mikroskopik mezonlarni ishlab chiqdik. Fermion tashuvchilarning Kuper juftlashishi paytidagi energiya noaniqlik darajasi, Kuper juftlarining bog‘lanish energiyasi $2\Delta_{BKSht}$ tartibida bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, Kuper juftlarining har bir fermion tarkibiy qismining energiya noaniqlik darajasi Δ_{BKSht} tartibida bo‘ladi. Shunday qilib, (3) noaniqlik munosabatini quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin

$$a_c \approx \frac{\hbar}{2\Delta_{BKSht}} \sqrt{\frac{\varepsilon_F}{2m_F^*}} \quad (7)$$

Kuper juftliklari orasidagi o‘rtacha masofa quyidagi ifodadan aniqlanadi

$$R_c \approx \left[\frac{3}{4\pi n_c} \right]^{1/3}, \quad (8)$$

bunda n_c - Kuper juftlarining konsentratsiyasi.

Yuqorida aytilganlarga ko'ra, agar $a_c > R_c$ sharti bajarilsa, legirlangan kupratlarda fermionli Kuper juftlari mavjudligini ko'ramiz. Quyidagi ifodalardan foydalanib $n_c = \frac{\varepsilon_A}{2\varepsilon_F} n = \frac{\varepsilon_A}{2\varepsilon_F} \cdot \frac{1}{3\pi^2} \left[\frac{2m_F^* \varepsilon_F}{\hbar^2} \right]^{\frac{3}{2}} = \frac{\varepsilon_A}{6\pi^2 \varepsilon_F} \left[\frac{2m_F^* \varepsilon_F}{\hbar^2} \right]^{\frac{3}{2}}$ va $R_c \simeq \left(\frac{\hbar^2}{2m_F^* \varepsilon_F} \right)^{\frac{1}{2}} \left(\frac{9\pi \varepsilon_F}{2\varepsilon_A} \right)^{\frac{1}{3}}$, bu shartni quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin

$$\frac{\varepsilon_A}{\varepsilon_F} > 36\pi \left(\frac{\Delta_{BKSh}}{\varepsilon_F} \right)^3 \quad (9)$$

yoki

$$\frac{\Delta_{BKSh}}{\varepsilon_F} < \left(\frac{\varepsilon_A}{36\pi \varepsilon_F} \right)^{1/3} \quad (10)$$

Bu ifoda legirlangan kupratli o'ta o'tkazgichlarda Kuper juftlarining fermion tabiatini aniqlashning mikroskopik va universal mezonlaridan biri hisoblanadi. Ushbu materiallarda fermion-bozon o'tishining universal va mikroskopik mezonini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\frac{\Delta_{BKSh}}{\varepsilon_F} = \left(\frac{\varepsilon_A}{36\pi \varepsilon_F} \right)^{1/3} \quad (11)$$

Legirlangan kuprat o'ta o'tkazgichlarda $\varepsilon_A/\varepsilon_F$ ning turli qiymatlarida Kuper juftliklarining fermion tabiatini va fermion-bozon o'tishini aniqlovchi miqdoriy mezonlar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Legirlangan kupratli o'ta o'tkazgichlarda fermionli Kuper juftlari mavjudligining miqdoriy mikroskopik mezonlari ularning asosiy parametrlari ε_A va ε_F nisbatining turli qiymatlarida

$\varepsilon_A/\varepsilon_F$	Fermion Kuper juftlarining mavjudligiga oid mikroskopik mezonlar $\Delta_{BKSh}/\varepsilon_F$	Fermion-bozon o'tishiga mos keladigan $\Delta_{BKSh}/\varepsilon_F$ qiymatlari
0.1	<0.0959	0.0959
0.2	<0.1209	0.1209
0.3	<0.1384	0.1384
0.4	<0.1523	0.1523
0.5	<0.1641	0.1641
0.6	<0.1744	0.1744
0.7	<0.1836	0.1836
0.8	<0.1919	0.1919
0.9	<0.1996	0.1996
1.0	<0.2068	0.2068

Legirlangan YuHO‘O‘-kupratlarda fermion Kuper juftliklarining mavjudligiga oid yuqorida keltirilgan mikroskopik mezonlardan tashqari, (10) shart va ($\Delta_{BKSh} = \frac{\hbar\omega_D}{sh(\lambda_{BKSh})}$) tenglamadan foydalanib, boshqa shunga o‘xshash mezonlarni ham olish mumkin. Bunda $\hbar\omega_D$ o‘rniga ε_A (bu yerda $\hbar\omega_D$ - akustik fononlarning energiyasi ε_A bilan almashtiriladi) qo‘yiladi. Bu holda (10) shart quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\frac{\varepsilon_A}{\varepsilon_F sh(1/\lambda_{BKSh})} < \left[\frac{\varepsilon_A}{36\pi\varepsilon_F} \right]^{1/3}, \quad (12)$$

bunda λ_{BKSh} - BKSh nazariyasidagi elektron-fonon bog‘lanish doimiysi hisoblanadi.

Legirlangan kuprat o‘ta o‘tkazgichlarda Kuper juftliklarining fermion tabiatini aniqlash uchun boshqa bir universal va mikroskopik mezonni quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin:

$$\frac{\varepsilon_A}{\varepsilon_F} < \frac{1}{12\sqrt{2\pi}} \exp\left(\frac{3}{2\lambda_{BKSh}}\right). \quad (13)$$

Legirlangan kupratlarda fermion-bozon o‘tishining boshqa bir universal va mikroskopik mezonni quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\frac{\varepsilon_A}{\varepsilon_F} = \frac{1}{12\sqrt{2\pi}} \exp\left(\frac{3}{2\lambda_{BKSh}}\right). \quad (14)$$

Legirlangan yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan kupratlarda Kuper juftliklarining fermion tabiatini va fermion-bozon o‘tishlarini aniqlash uchun yuqorida keltirilgan universal va mikroskopik mezonlar fermionlarning o‘rtacha maydon BKSh mikroskopik nazariyasining asosiy parametrlaridan (ε_A, Δ_F yoki λ_{BKSh}) foydalanish orqali olingan. Avvalo, optimal legirlangan *LSCO* va *YBCO* yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan kupratlarni ko‘rib chiqamiz. Ularda Fermi energiyalari mos ravishda $\varepsilon_F \approx 0.17 \text{ eV}$ va $\varepsilon_F \approx 0.25 \text{ eV}$ (3-jadvalda qarang) tartibida bo‘ladi. Optimal legirlangan yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan kupratlarda polyaronlarning bog‘lanish energiyasining tajribaviy qiymati $E_p \approx 0.06 \text{ eV}$ tartibida bo‘ladi. *LSCO* yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan materiallari uchun (10) mezonni quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{\Delta_{BKSh}}{\varepsilon_F} < \left[\frac{0.11}{36\pi \cdot 0.17} \right]^{1/3} \text{ при } \varepsilon_A = E_p + \hbar\omega_0 \approx 0.11 \text{ эВ} \quad (15)$$

yoki

$$\frac{\Delta_{BKSh}}{\varepsilon_F} < (5.8)^{1/3} \cdot 10^{-1} \approx 0.18 \quad (16)$$

Optimal legirlangan *LSCO* da Δ_{BKSh} qiymati 0.04 eV dan kichik yoki unga teng bo‘ladi. Shu sababli, $\Delta_{BKSh}/\varepsilon_F \approx 0.04/0.17 \approx 0.235$ nisbat uchun *LSCO* dagi Kuper juftliklarining fermion tabiatini belgilovchi (16) mezon optimal legirlangan holatda bajarilmaydi.

Optimal legirlangan YuQO‘O‘-kupratlar uchun (11) mezon quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\frac{\Delta_{BKSh}}{\varepsilon_F} < \left[\frac{0.11}{36\pi \cdot 0.25} \right]^{1/3} \text{ при } \varepsilon_A = E_p + \hbar\omega_0 \simeq 0.11 \text{ эВ} \quad (17)$$

yoki

$$\frac{\Delta_{BKSh}}{\varepsilon_F} < 0.157 \quad (18)$$

Optimal legirlangan *YBCO* da Δ_{BKSh} qiymati ham 0.04 eV atrofida bo‘lishini hisobga olsak, $\Delta_{BKSh}/\varepsilon_F$ nisbati uchun 0.16 ni olamiz. Ko‘rinib turibdiki, *YBCO* YuHO‘O‘ materialidagi Kuper juftliklarining fermion tabiatini belgilaydigan (18) mezon optimal legirlangan rejimda ham bajarilmaydi.

Endi o‘ta legirlangan YuHO‘O‘-kupratlar *LSCO* va *YBCO* ni ko‘rib chiqamiz. Ularda Fermi ε_F tajriba natijalariga ko‘ra taxminan 0.4 eV ni tashkil etadi. Bundan tashqari, eksperimental ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘ta legirlangan kupratlarda Δ_{BKSh} qiymati 0.010 eV dan 0.020 eV gacha o‘zgaradi. Ushbu YuHO‘O‘-materiallarda $E_p = 0$ bo‘lganda tashikli tashuvchilar orasidagi ε_A tortishish juftlashish o‘zaro ta’sir energiyasi $\varepsilon_A = \hbar\omega_0$ sifatida aniqlanadi va optik fononlarning energiyalarini $\hbar\omega_0 \simeq 0.06 \text{ eV}$ ga teng deb hisoblash mumkin. Shunday qilib, $\varepsilon_A = 0.06 \text{ eV}$ va $\varepsilon_F = 0.4 \text{ eV}$ bo‘lganda, o‘ta legirlangan YuHO‘O‘-kupratlar *LSCO* va *YBCO* da kuper juftlarining fermion tabiatini aniqlovchi (10) mezonni quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\frac{\Delta_{BKSh}}{\varepsilon_F} < \left[\frac{0.06}{36\pi \cdot 0.4} \right]^{1/3} = 1.1 \cdot 10^{-1} = 0.11 \quad (19)$$

Yuqorida keltirilgan tajriba natijalariga ko‘ra, o‘ta legirlangan YuHO‘O‘-kupratlarda Δ_{BKSh} parametrining qiymatini $\Delta_{BKSh} = 0.015 \text{ eV}$ ga teng deb olish maqsadga muvofiqdir. Bunday holda, *LSCO* va *YBCO* da Kuper juftlarining fermion tabiatini aniqlovchi (20) mezon $E_p = 0.4 \text{ eV}$ bo‘lganda yaxshi bajariladi.

LSCO va *YBCO* legirlangan YuHO‘O‘-kupratlarda fermion-bozon o‘tishlar (ya’ni fermion Kuper juftlarining bozon Kuper juftlariga aylanishi) legirlash darajasi kuchli o‘ta legirlangan holatdan biroz o‘ta legirlangan holatga kamayishi jarayonida sodir bo‘lishini kutish mumkin. Bu jarayonda Fermi energiyasi ε_F 0.4 eV dan 0.3 eV gacha pasayadi. Shunda $\varepsilon_A = 0.06 \text{ eV}$ uchun (11) mezon quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\frac{\Delta_{BKSh}}{\varepsilon_F} = \left[\frac{0.06}{36\pi \cdot 0.3} \right]^{1/3} \simeq 0.121 \quad (20)$$


$\varepsilon_F = 0.3 \text{ eV}$ bo‘lganda, bu mezon $\Delta_{BKSh} = 0.0363 \text{ eV}$ uchun bajariladi.

Demak, (10) mezonga muvofiq, legirlangan kupratlardagi Kuper juftlari, ularda polyanon effekti mavjud bo‘lmaganda ($E_p = 0$) va Fermi energiyasi ε_F 0.3 eV dan

yuqori bo'lganda, fermion tabiatiga ega bo'ladi. Keyingi tahlil uchun (11) ifodani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\frac{\Delta_{BKSh}}{\varepsilon_F} \simeq 0.214 \left(\frac{\varepsilon_A}{\varepsilon_F}\right)^{1/3} \quad (21)$$

Bu ifoda legirlangan YuHO'O'-kupratlarda fermion-bozon o'tishlarining chegaralarini ikkita asosiy nisbat $\varepsilon_A/\varepsilon_F$ va $\Delta_{BKSh}/\varepsilon_F$ ga bog'liq holda aniqlaydi, bu 2-rasmda ko'rsatilganidek.



2-rasm. Legirlangan yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlarda fermion Kuper juftlari va fermion-bozon o'tishining mavjudlik imkoniyatlari $\varepsilon_A/\varepsilon_F$ va $\Delta_{BKSh}/\varepsilon_F$ asosiy nisbatlarga bog'liqligi

Legirlangan YuHO'O'-kupratlarda kuper juftlari va fermion-bozon o'tishlarning fermion tabiatini aniqlaydigan boshqa mikroskopik mezonlarni keyingi tahlil qilish uchun (13) va (14) mezonlarni mos ravishda quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\exp\left(-\frac{3}{2\lambda_{BKSh}}\right) \leq \frac{\varepsilon_F}{30\varepsilon_A} \quad (22)$$

Optimal legirlangan YuHO'O' *LSCO* materialini ko'rib chiqamiz, uning uchun $\varepsilon_A = 0.11$ eV va $\varepsilon_F = 0.17$ eV. U holda (20) munosabatni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin

$$\exp\left(-\frac{3}{2\lambda_{BKSh}}\right) < 0.0515 \quad (23)$$

Optimal legirlangan *LSCO* da λ_{BKSh} parametrining qiymati taxminan $\lambda_{BKSh} \simeq 0.4$ tartibida bo'lishi mumkin deb hisoblanadi. Shu sababli, optimal legirlangan *LSCO* da Kuper juftlarining fermion tabiatini belgilovchi (23) mezon hatto $\lambda_{BKSh} \geq 0.506$ bo'lganda ham bajarilmaydi.


Optimal legirlangan *YBCO* YuHO'O' materialлари uchun $\varepsilon_A = 0.11$ eV va $\varepsilon_F = 0.25$ eV qiymatlarda (20) shart quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\exp\left(-\frac{3}{2\lambda_{BKSh}}\right) \leq 0.0757 \quad (24)$$

Bu mezon $\lambda_{BKSh} \geq 0.582$ bo'lganda optimal legirlangan yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan *YBCO* materiali uchun bajarilmaydi, ya'ni bu materialdagi Kuper juftlari bozon tabiatiga ega. Yuqorida keltirilgan sonli hisob-kitoblar natijalari shuni ko'rsatadiki, *LSCO* va *YBCO* legirlangan kupratlarda fermion-bozon o'tishlar mos ravishda $\lambda_{BKSh} \approx 0.506$ va $\lambda_{BKSh} \approx 0.582$ qiymatlarda sodir bo'ladi. O'ta legirlangan *LSCO* va *YBCO* kupratlari uchun $\varepsilon_A \approx 0.06$ eV va $\varepsilon_F \approx 0.4$ eV bo'lganda, (22) shartni quyidagicha yozish mumkin:

$$\exp\left(-\frac{3}{2\lambda_{BKSh}}\right) < 0.222 \quad (25)$$

BKSh turidagi elektron-fonon bog'lanish konstantasi λ_{BKSh} kupratlarning legirlash darajasi oshishi bilan kamayadi va o'ta legirlangan holatlarda u 0.6 dan kichik yoki shunga yaqin bo'lishi taxmin qilinadi. Shu sababli, *LSCO* va *YBCO* da Kuper juftliklarining fermion tabiatini belgilaydigan (25) mezon o'ta legirlangan holatlarda katta zaxira bilan bajariladi.



3-rasm. Legirlangan YuHO'O'-kupratlarda fermion Kuper juftlari va fermion-bozon o'tishining mavjudlik imkoniyatlari $\varepsilon_A/\varepsilon_F$ fundamental nisbatga hamda BKSh tipidagi elektron-fonon bog'lanish doimiysi λ_{BKSh} ga bog'liq holda

Nihoyat, legirlangan kupratlarda fermion-bozon o'tishlarini aniqlovchi mikroskopik mezonni quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

